

UDK: 372.1:371.126

BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARINING ASOSIY FUNKSIYALARI.

Jabborova Marifat Qodiraliyevna

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi.

Annotatsiya: *Jahonda global o'zgarishlar, oliy ta'limda fikrlash doirasi keng va mulohazali pedagog kadrlarni tayyorlash sifatini yaxshilash imkoniyatlarini kengaytiradi. Bo'lajak tarbiyachilarni kompleks yondashuv asosida yuqoridagi asosiy fuksiyalari shakllanish bilan bir qtorda uning malaka talablari ham shakllanib boradi.*

Kalit so'zlar: *ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, me'yoriy, kommunikativ, axborot, muvofiqlashtiruvchi, aks ettiruvchi, diagnostik*

ФУНКЦИЯ ОСНОВЫ ИСТОРИКА БУДУЩЕЙ ОРГАНИЗАЦИИ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ.

Аннотация: *Глобальные изменения в мире расширяют возможности для улучшения качества широкого и подготовки педагогического обучения в высшем образовании. Основываясь на комплексной консолидации будущих красивых, также будут сформированы требования вышеуказанной основы в QTOR.*

Ключевые слова: *образование, история, развитие, степень, архив, коммуникативная, информация, координатор, в противном случае, диагностика*

THE FUNCTION OF THE BASIS OF THE HISTORIAN OF THE FUTURE PRESCHOOL EDUCATION ORGANIZATION.

Annotation: *Global changes in the world will expand opportunities to improve the quality of wide and training of pedagogical training in higher education. Based on the comprehensive consolidation of future beautifiers, the requirements of the above basis form in a qtor will also be formed.*

Keywords: *education, history, developmental, degree, archival, communicative, information, coordinator, otherwise, diagnostic*

Introduction

Jahondagi o'zgarishlar, jadal taraqqiyot va yangi kompetentsiyalarni talab qiladigan turli xil texnologiyalarning doimiy takomillashuvi kasbiy faoliyat jarayonlarida, ishlab chiqarish sohalarida erishilgan yutuqlardan malakali kadrlarni tayyorlashda foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birgalikda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion muhitni yaratish kompleks yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik kasbiy tayyorgarligini shakllantirish bo'yicha tadqiqotlar ham olib borilmoqda.

Conclusion.

Respublikamizda so'ngi yillarda tarbiyachi pedagoglarning ma'naviy qiyofasi, ilmiy salohiyati hamda ilm fan va innovatsiyani rivojlantirish hamda uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlashning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. Muhtaram prezidentimiz Sh.Mirziyoyev "Qaysi sohani olmaylik biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi." deb ta'kidlaganidek hozirgi kunda global o'zgarishlar, oliy ta'limda fikrlash doirasi keng va mulohazali pedagog kadrlarni tayyorlash sifatini yaxshilash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kompleks yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarni quyidagi asosiy fuksiyalari shakllantiriladi: ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, me'yoriy, kommunikativ, axborot, muvofiqlashtiruvchi, aks ettiruvchi va diagnostik

Ta'limiy funksiya bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining didaktik ma'ruza, kasbiy bilimlar, ko'nikmalar va ijtimoiy tajribalar tizimi bilan shaxs va jamiyat manfaatlarini ongli ravishda o'zlashtirishga qaratilgan.

Tarbiyaviy funksiya bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarini maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va o'qitishning mazmuni, tashkiliy metodik asoslarini o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Rivojlantiruvchi funksiya shundan iboratki, bo'lajak tarbiyachilarning didaktik bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish hamda faollashtirish, kasbiy fikrlash, xotira va nutqini, pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bir vaqtda sodir bo'ladi, bu esa bo'lajak tarbiyachilarni o'qitish uchun sharoit yaratishda yanada samarali va kompleks yondashuvdan foydalanish va qo'llash, bolalarni barkamol rivojlanishi, maktabgacha ta'lim tashkilotida o'quv tarbiyaviy jarayonni to'g'ri tashkil etish imkonini beradi

Kasbiy pedagogik madaniyatning me'yoriy funksiyasi bo'lajak tarbiyachi faoliyati tizimini tartibga soladi. Pedagogik faoliyat me'yorlarini bilish bo'lajak tarbiyachiga o'z xarakterlarini to'g'riligiga ishonch hosil qiladi.

Pedagogik me'yor qadriyatlar fuksiyasini bajarib, bo'lajak tarbiyachiga faoliyatning eng maqbul usullarni tanlashga, kasbiy ustivorliklarni belgilashga yordam beradi. Pedagogik faoliyat me'yorlari tarbiyachi va bolalar, hamkasblar, ota-onalar va ma'muriyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayonida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni hal qilishga, ularning hamkorligini ta'minlashga va maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash bo'yicha birgalikdagi harakatlarga erishishga qaratilgan.

Pedagogik faoliyatdagi axborot funksiyasi uning barcha funksional komponentlari bilan bog'liq. Bo'lajak tarbiyachi turli xil psixologik, pedagogik va uslkiy axborotlar oqimiga yo'naltirilgan bo'lishi, turli axborot vositalaridan foydalana olish, axborot texnologiya vositalarini egallashi kerak; shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun ushbu vositalardan foydalangan holda ma'lumotlar bilan ishlay olishi kerak.

Kasbiy pedagogik madaniyatning muvofiqlashtiruvchi funksiyasi ta'lim jarayoni mazmunining o'zgaruvchanligi, texnologiyalarni tanlashga qaratiladi. Ushbu fuksiya

bo'lajak tarbiyachilarni keyingi kasbiy faoliyatini takomillashtirish uchun asos bo'ladi. Ta'lim funksiyasi muvofiqlashtiruvchi funksiyani amalga oshirish bilan bog'liq.

Aks ettirish funksiyasi yani refleksiya nafaqat tarbiyachini o'zining pedagogik faoliyatini tushunishi bilan, balki boshqa tarbiyachilar, rahbarlar, o'qituvchilar tomonidan "reflektor"ning shaxsiy fazilatlari, hissiy reaksiyalari va bilish qobiliyatlarini baholash bilan ham bog'liqdir.

Ko'rib chiqilayotgan funksiyani amalga oshirish samaradorligi tanqidiy fikrlash, taxlil va dalillarga intilish, o'z pozitsiyasining asosiligi, tarbiyachida ma'lumotni idrok etishga tayyorgarlik kabi fazilatlarning mavjudligi bilan chambarchas bog'liq.

Pedagogik aks ettirish yani refleksiya- bu amalga oshirilgan faoliyatni o'z -o'zini taxlil qilish, olingan natijalarni baholash demakdir. Bo'lajak tarbiyachilarni keyingi faoliyatida o'zgarishlar kiritish, yanada yaxshi natijalarga erishish uchun ta'lim jarayonidagi yutuq va muvaffaqiyatsizliklar, xato va qiyinchiliklarning sabablari haqida fikr yurita olishi kerak.

Diagnostika funksiyasi murakkab kasbiy muammolarni yuqori darajada, har tomonlama va ijodiy hal qilish qobiliyatidan iborat, xususan: diagnostika maqsadlarini qurish, diagnostika faoliyati natijalarini qurish, diagnostika faoliyat natijalarini bashorat qilish, diagnostika vositalarini tanlash yoki ishlab chiqish; boshqa pedagog xodimlar (psixologlar, musiqa xodimi, logoped) bilan birgalikda psixologik va pedagogik diagnostika o'tkazish, diagnostika ma'lumotlarini taxlil qilish va sharqlash, tizimli diagnostikaga asoslangan o'quv jarayonini loyihalash va amalga oshirish.

Kommunikativ funksiya Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining kommunikativ qobiliyatlari, birinchi navbatda, pedagogik o'zaro ta'sir sohasida o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan muloqat qilish qobiliyati deb tushuniladi. Bunda tarbiyachi bolalar jamoasi bilan o'zaro (to'g'ridan to'g'ri va bilvosita) ta'sir sub'ekti sifatida ishlaydi; o'z o'zini tarbiyachi sifatida shaxsiy va kasbiy rivojlanishi (o'zini rivojlantirish) sub'ekti; pedagoglar jamoasini tarbiyachilar jamoasi sifatida shakllantirish va rivojlantirish predmeti;

Bo'lajak tarbiyachilarni kompleks yondashuv asosida yuqoridagi asosiy fuksiyalari shakllanish bilan bir qatorda uning malaka talablari ham shakllanib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-son Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Xarakterlar Strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017 yil. 6-son 70 – modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda qabul qilingan «2017-2021 yillarda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ 2707 sonli qarori.



4. Jabboroma M.Q. Bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimida malakaviy amaliyotning rol. Scientific progress volume 3 | issue 4 | 2022 issn: 2181-160
5. Jabborova M.Q. Tarbiyachi kasbining ma'naviy axloqiy negizlari. "Yangi o'zbekistonning umidli yos central asian research journal for interdisciplinary studies (carjis) ilmiy jurnali bilan hamkorlikda. Yangi o'zbekistonning umidli yoshlarahlari" 1(1)-son 03.28.22.son.
6. Jabborova M.Q. Jamiyat ijtimoiy taraqqiyotida innovatsion texnologiyalarning ahamiyati. "Экономика и социум" №6(85) ч.1 2021